

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINING BADIY XUSUSIYATLARI

Abilxayrova Sevinch Zoir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

“O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: xudojberdiyevanodira24@gmail.com

ANNOTATSIYA

“Farhod va Shirin” dostoni, chin xoqonining farzandsizligi haqida fikr yuritilgan. Farhodning ishq savdosida aqldan ozishi, Farhod va Shirin o‘rtasidagi munosabatlar, Farhod va Xusrav o‘rtasidagi nizolar, biz yoshlarning kelajagidagi ushbu dostonning o‘rnini.

Kalit so‘zlar: Muammolar, yechim, tugun, syujet, zolim, xalqlar do‘stligi, vatanparvarlik, tinchlik, mehnatsevarlik, mustaqillik, kulminatsiya, tilsim, Sulaymon uzugi.

ANNOTATION

The epic “Farhad and Shirin”, an opinion about the childlessness of the chin Khan reviewed. Farhad’s crazy in business trading, between Farhad and Shirin relationships. Disputes between Farhad and Khusraw, the role of this epic in the future of our youth.

Key words: problems, solution, wrapped up parcel, syojet, tyrannical, friendship of peoples, patriotism, peace, hard work, independence, culmination, magical, Solomon’s ring.

Alisher Navoiy buyuk shoir, ulug‘ adib. Bugungi kunda Respublikamizda Navoiy ijodini o‘rganish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan buyuk allomalar ijodiy merosini o‘rganish, boshqa xorijiy tillarga tarjima qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. Ulug‘ shoir o‘zining she’riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer

yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egallashini ta’kidlab o‘tgan¹.

Shu boisdan buyuk alloma asarlari va ularning badiiy jozibasi xususida mulohazalarimizni bildiramiz. Ayniqsa, “Farhod va Shirin” dostoni bunga misol.

Nasriy bayonchilik, tabdil, badiiy asarni nazmdan nasrga o‘girish an‘anasi boshqa adabiy hodisalar singari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. XIX asr boshida Navoiy dostonlari nasriy bayonlarining dastlabki namunalari Xorazmda adib Umar Boqiy tomonidan yaratildi. Bu Navoiy dostonlarini falsafiy “murakkab” adabiyotdan – “sodda” adabiyotga, janrdan – janrga o‘girishning ilk namunasi edi.

Umar Boqiy XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida Xorazmda ijod etgan. Umar Boqiy haqida bizgacha nihoyatda kam ma‘lumot yetib kelgan. Uning faoliyati Navoiy dostonlari asosida yaratilgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” qissalari olimlarimiz tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan. Umar Boqiyning “Farhod va Shirin” qissasi va Navoiyning shu nomli dostoni qiyoslab o‘rganilgan dastlabki tadqiqot Abdurauf Fitratning 1930-yili “Alanga” jurnalida (1 – 2-sonlar) chop etilgan “Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida”gi maqolasidir. Fitrat qissa va dostonning qiyosiy tahlilidan oldin, umuman, “Xusrav va Shirin”, “Farhod va Shirin” sayyor syujetlarining adabiyotga kirib kelishi, Firdavsiydan, Behistun tog‘laridagi bitiklardan to Navoiygacha bosib o‘tilgan yo‘li xususida batafsil to‘xtaydi. Markaziy Osiyo, xusan, Boysunda mazkur syujetlar asosida paydo bo‘lgan xalq hikoyalari haqida ham fikr yuritadi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni 54 bobdan iborat. Umar Boqiy dostonni xalq kitobiga aylantirishda kompozitsion yaxlitlash yo‘lidan boradi. Dostonni bir necha qismlarga ajratib, ularni o‘zi nomlaydi. Navoiy dostonidagi sarlavhalarni aynan takrorlamaydi.

Jumladan, asar boshlanishi Navoiy dostoni birinchi bobidagi kabi sarlavhasiz berilgan. “Va ollohi A‘lam shahzoda Farhodni oynai Iskandarga boqqani hikoyasi”, “Shahzoda Farhodni oynai Iskandarni tamosha qilib otashi ishqqa giriftor bo‘lg‘ani”, “Farhodni ariq qozimoq bilan balo tog‘ini boshiga yog‘durg‘onini hikoyasi”, “Va bu asnoda Farhod parivashi uchun Xusravi zolimning elchi yiborganini hikoyasi” tarzida nomlanadi².

“Farhod va Shirin” dostonining syujeti uning g‘oyat ko‘p epizodlardan tashkil topganligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiyning ushbu dostoni uchun tanlagan syujetda Farhodning Chindan Shirinning esa Armaniyadan bo‘lishi ijodi uchun eng yaxshi variantdir. Negaki, dostonning o‘zagi bo‘lmish “ishqiy-qahramonlik“ obrazining Chin-Armaniya orasida kechishi yozuvchiga o‘zini o‘ylatgan muammolar tadqiqi uchun

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.10.2020 yildagi PQ-4865-son

² <https://hozir.org/farhod-va-shirin-v2.html?page=8>

Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>

zarur voqealarni asarga olib kirish imkonini yaratdi. Ya’ni o’sha davrdagi insonlar shu paytgacha ardoqlab kelayotgan insonparvarlik, do’stlik, mexr-muruvvat, haqiqiy sevgi va muhabbat yo‘lidagi kurash kabi insoniy tuyg‘ulami mujassamlashtirgan.

Mustaqillik yaratgan yangicha hayot va sharoitda yosh avlodlar o‘z o‘rnini topishi va yangicha zamon, asrlarda ifodalangan g‘oyalarni tushunib, hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy o‘zining “Farhod va Shirin” dostonida ikki qahramon ya’ni Farhod va Shirinning sarguzashtlarini talablarga javob beradigan, tafakkur va salohiyatga ega bo‘lishlari uchun Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, hikoya qilishda o‘zining, xalqlar do’stligi, vatanparvarlik, tinchlik, mehnatsevarlik, ma’rifatparvarlik, g‘oyalarni ajoyib misralar orqali yoritib bergen.

Doston syujetining kulminatsiyasi bo‘lgan Xusrav va Farhod o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dialog fikrimizning yaqqol misoli:

Dedi: nedur senga olamda pasha?

Dedi: ishq ichra majnunluq hamesha...

Dedikim: ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur?

Dedi: ko‘nglumda jondek yoshurundur...

Dedi: ko‘nglung fido qilsa jafosi?

Dedi: jonimni ham aylay fidosi...

Dedikim: shahg‘a bo‘lma shirkat andesh!

Dedi: ishq ichra tengdur shohu darvesh!

Dedi: joningg‘a bu ishdin alam bor.

Dedi: ishq ichra jondin kimga g‘am bor?

Dedi: ishq ichra qatling hukm etgum,

Dedi: ishqida maqsudumg‘a yetkum.

Farhodning insoniy fazilatlari ushbu dialogning o‘zidayoq mujassam bo‘lgan.

Bizning fikrimizcha, asar tuguni Farhod kamolatga yetgan sari uning rangi somondek sarg‘aya borishi, ma’yusligi, otasining Farhodga o‘z xazinasini ko‘rsatishi va eng muhimi sandiqni ko‘rishi, Yunonistonga safar qilishi, Sulaymon uzugini topishi, tilsimning ochilishi, Suqrot g‘origa borishi, sirli oynani olib, unda Arman dashti va Shirinni ko‘rib ishq savdosini boshiga tushishi.

Asarning yechimi sifatida esa Shirinning go‘zalligi haqidagi xabarning Eron podshosi Xusravga yetib borishi va Xusravning Arman o‘lkasiga bostirib kirishi, Farhod, Shirin, Mehinbonu va zolimlar o‘rtasidagi nizolar. Zolimlarning zulmini avj olishi, yuqorida keltirilib o‘tilgan Xusrav va Farhod o‘rtasidagi dialogni oldik. Dostonda tasvirlangan voqealar garchi real hayotda yuz bermasa-da, ular zamirida elga xizmat qilishdek oliyanob maqsad yotadi. Navoiyning ideal qahramonlari ana shu oliyanob maqsad yo‘lida harakat qilib, xalq orzu-istiklarining ro‘yobga chiqishi uchun kurashadilar. Va bu hozirgi biz yoshlarning kelajagimiz uchun izlanishdan,

mehnatdan tolmasligimiz uchun yangi O‘zbekistonni o‘zimiz, o‘z qo‘llarimiz bilan bunyod etishimizga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.10.2020 yildagi PQ-4865-son
2. <https://hozir.org/farhod-va-shirin-v2.html?page=8>
3. <https://askinfo.uz/1721/farhod-va-shirin-dostoni-haqida-insh>
4. Turakulova O. Adabiy ta’limda Alisher Navoiy ijodini o‘rganish. T.: 2019